

Ona yurtning - oltin beshiging

TONG yulduzi

№ 30
(66467)

2004 yil
26 iyul - 1 avgust

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqa
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

YURTIM DOVRUG'I



Biz Belorussiyada yashasak-da, asli o'zbekistonlikmiz. Shuning uchun ham bu yurtga mehrim bo'lakcha. Yutuqlaridan shodlanaman, qayg'u soya solsa, ko'nglim g'ashlanadi. Yaqinda Rustam aka Qosimjonovning shaxmat bo'yicha jahon chempioni

bo'lganini eshitib, boshim osmonga yetdi. O'sha kunlarda oynai jahon qarshisidan ketolmay qoldim. O'z g'alabasini butun O'zbekistonning yutug'i deb bilayotgan Rustamjon akamni men ham samimiy qutlayman. Yurt dovrug'ini dunyoga taratadigan ana shunday iqtidorli o'g'il-qizlar davrasi kengayishiga tilakdoshman.

Belorussiyadan qutlov

Artyom GRIN,
Mogilyov viloyati, Bobruysk shahridagi
105 - maktabning 7 - sinf o'quvchisi.

«TONG YULDUZI»M

Gazelalar sarasi,
O'zingnan «Tong yulduzi».
Yurtimizning eng zukko,
O'qiydi o'g'il qizi.

Kutilmagan mehmonlar,
Zavqimiz toshiradi.
Boshqotirma, topishmoq,
Aqlimiz oshiradi.

She'r, hikoya, ertaklar,
Gazelada bor kitob.
Juda ham qiziq bizbop,
Go'yo nur to'la oqlob.

Sahifasi rang - barang,
O'qigan bo'lmaydi kam,
Sevib qo'ldan qo'ymaymiz,
Barcha hikmat jamul-jam.

Nodira BAHROMOVA,
Toshkent viloyati, Bekobod shahridagi
9-maktabning 6 - sinf o'quvchisi.

1 Avgustda gazetamiz chop etila
boshlaganiga 75 YIL to'ladi

-Bolaligimdan bu gazeta muxlisiman. Uning har bir sonini sahifalab borardim. Sodda tilda yozilgan biri-biridan qiziqarli maqola va hikoyalarini o'qib zavqlanardim. Unga muharrirlik qilgan insonlardan biri, ajoyib olim G'anijon Jahongirovni juda yaxshi tanirdim. Bolalar davrasida o'zi ham bolaga aylanib ketadigan bu insondan juda minnatdorman.

HAR KUNI BIR HADIS

Ular bizga jonkuyarlik bilan nasihatlar berar, ezgulikka da'vat qilardilar... Endilikda o'zim ham boboman, 70 yoshni qoralab qoldim. Mahallalarda, maktab va kollejlarda tez-tez bo'lib turaman. Bolajonlarga hikmatlardan o'qib beraman, maqol va matallarning ma'no-mazmunini tushuntirishga harakat qilaman. «Sog'lom avlod - dono avlod» - mana mening hayotdagi shiorim. Har bir bola kuniga bittadan hikmat yoki hadisni yozib, yodlab, o'rganib borsa, bilimi boyiydi, ma'naviyati shakllanadi. Axir, yoshlikda o'rgangani toshga, qarilikda o'rgangani muzga yoziladi, deb bejiz aytilmagan-ku.

Shunday ekan, aziz bolajonlarim, ko'proq kitob o'qing, «jonli akademiya» deya ta'rif beriladigan «Tong yulduzi»ngiz bilan samimiy do'stlashing. Rustam Qosimjonovdek yurtimiz faxri bo'lishga intilib yashang.

Bilol AMINOV,
Tartix fanlari nomzodi, elshunos olim.

Dugonalarim orasida sportga qiziqadiganlari talaygina. Lekin ularning ota-onalari sport bilan shug'ullanishlariga ruxsat berishmas emish. «Undan ko'ra osh-ovqatni, supur-sidirni o'rgangin. Kelajak hayotingda shular senga ko'proq asqotadi», deyisharkan...

Men ko'pchilikka namuna bo'la oladigan bir oilani bilaman. Oila boshlig'i Zafarjon akaning bu boradagi fikrlari bo'lakcha: o'g'ildir, qizdir, har bir bola sport bilan muntazam shug'ullanishi lozim. Chunki sportning inson salomatligidagi o'rni beqiyos deb hisoblaydilar. Shuning uchun ham qizlari Saodat, Komila va Zarinalarning sport bilan shug'ullanishlariga qarshilik qilmaydilar. Aksincha, o'zlari yetaklab olib boradilar. Ularning qo'lga kiritayotgan yutuqlaridan quvonib yashaydilar.

-Ilk bor «Dinamo» sport kompleksining o'q otish to'garagiga yetaklab borganlarida, deya kulib xotirlaydi shahrimizdagi 116 - maktabning 11-sinfida tahsil olayotgan qizlari Kamola Mirfayozova, o'g'il bolalarning ko'pligini ko'rib, bu



to'garakka qatnashmayman, deb turib olgandim. Murabbiyimiz Vozmishev Sergey bilan shug'ullanishiga qarshilik qilmas ekanlar. Xo'sh, bu borada onasi Gulchehra opaning fikrlari qanday ekan?

MERGAN QIZ

Gennadiyevichning xushmuomalaligi, shirinso'zligi sabab bo'lib, navbatdagi mashg'ulotga ham bordim. Keyin yana... shu tariqa sportning bu turiga o'zim ham qiziqib ketdim. Mana besh yildirki, o'q otish bilan shug'ullanib kelyapman. 2001 yilda birinchi marotaba O'zbekiston birinchiligida qatnashib, 3-o'rinni qo'lga kiritdim. To'g'risi, natijamdan o'zim qoniqmadim. Yanada ko'proq mashq qila boshladim. Keyinchalik bir necha bor O'zbekiston kuboklarida muvaffaqiyatli qatnashib, 2-o'rinlar sohibi bo'ldim.

Saodatxonning dadasi sport bilan shug'ullanishiga qarshilik qilmas ekanlar. Xo'sh, bu borada onasi Gulchehra opaning fikrlari qanday ekan?

-Zafarjon akamning fikrlariga qo'shilaman. Qolaversa, sportning farzandlarim salomatligiga ko'rsatayotgan ijobiy ta'sirini ko'rib, sezib turibman. 10-sinfda tahsil oladigan qizim Komilaning kamon otish, 238 - maktabning 7-sinfida o'qiydigan qizim Zarining yengil atletika bilan shug'ullanishlari uchun o'zim sharoit yaratib berishga harakat qilaman. Ularni uy-ro'zg'or ishlari bilan band qilib qo'yishni xohlamayman. Shunda ham fursat topishdi deguncha menga yordamlashishga oshiqishadi. Maktabdagi saboqlardan, sport mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarida til o'rganishadi, kompyuter saboqlarini olishadi. Axir tezkor zamonamizning talabi ham shu-da! Ilmli, bilimli, zukko va komil, eng muhimi, sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash biz ota-onalarning burchimiz-ku, axir!

-Saodatxon, sportning bu turi bilan shug'ullanish sizga nima beradi? -so'rayman qiziqib.

-Mengami, juda ko'p narsa,-deydi dugonam. - Avvalambor mustahkam iroda, o'tkir nigoh, qolaversa, o'zimga

bo'lgan ishonchni, maqsad sari intilishni shakllantiradi. Yana, dunyoga chiqish imkonini beradi.

Maqsadim - O'zbekiston kubogi musobaqalarida muvaffaqiyatli qatnashib, faxrli 1-o'rinni egallash. Shundagina ota-onam ishonchini, mehnatlarini oqlagan, orzularini ushaltirgan bo'laman...



Saodatxonning qat'iyatni, intiluvchanlikni ko'rib, unga juda havasim keldi. Qaniydi, har birimiz u kabi maqsad bilan, xalqimizga munosib komil farzandlar bo'lishga intilib yashasak...

Saodatxonning qat'iyatni, intiluvchanlikni ko'rib, unga juda havasim keldi. Qaniydi, har birimiz u kabi maqsad bilan, xalqimizga munosib komil farzandlar bo'lishga intilib yashasak...

Nargiza AKBAR qizi suhbatlashdi.



POCHTACHI BOBOMIZDAN XURSA NDIMIZ

Kundalik gazeta va jurnallarimizni o'z vaqtida olib kelib berayotgan pochta chi Ravshan boboni mahallamizning katta-yu kichigi birdek hurmat qilishadi. Sababi, 32 yildan buyon shu sohada ishlab, obro' topgan juda shirin so'z, barchaga ochiq chehra bilan muomala qiladilar.

Bugun ham erta tongdan uyimizga kelib, meni chaqirdilar. Yugurib chiqib salom berdim. Salomimga jilmayib alik olarkan, tabriklayman qizim, sening she'ring «Gulxan» jurnalida bosilib chiqibdi, dedilar. Xuddi o'zlarining she'rlari chop etilgandek entikib rahmat dedim hayajon bilan, xuddi o'z bobomdek bo'lib qolgan bu insonga minnatdor nigohlarimni qadab. Ravshan bobo Hoshimov bu yil 56 yoshni qarshilayaptilar. Bir necha kundan so'ng ularning tug'ilgan kunlari. Bizga ma'naviyat ulashayotgan bobomizga sog'lik, omonlik tilaymiz.

Shahnoza QODIROVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon
tumanidagi 48-maktabning
4-«A» sinf o'quvchisi.

Men Qo'qon shahar Xalq ta'limiga qarashli 5-umumta'lim maktabida o'qiyman. O'quv yili boshida maktabimizda «Eng yaxshi sinf jamoasi» ko'rik-tanlovi e'lon qilingan bo'lib, 25 - may kuni nihoyasiga yetdi. Tanlov natijalariga ko'ra, bizning sinfimiz o'quvchilari g'olib bo'ldik va e'lon qilingan Oliy sovrin - Farg'onaga sayohat yo'llanmasi bilan taqdirlandik. Iyun oyida sinfimiz bilan Farg'ona shahriga borib keldik. Sayohat jarayonida bizga maktabimiz rahbari O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi

zamonaviy texnika vositalari yordamida ayrim tajribalardan namunalari ko'rsatdi. Ingliz tili xonalari o'rnatilgan eshitish, so'zlashish qurilmalari bizga juda ma'qul keldi. Shundan so'ng, biz Farg'ona markazidagi Ahmad al-

KECHIRISH OSONMI?...

Eng yomon ko'rgan odatim - kim bilandir urushib qolish. Ayniqsa, yaqin do'sting bilan xafalashib qolsang bormi, kechirim so'rash juda qiyin-da. Ba'zida do'stlarim bilan mening o'rtamda shunday holat yuzaga kelsa, uzr so'ramasdim. Ularning yonidan jimgina o'tib ketaverardim.


Bir kuni qadrdon o'rtog'im bilan xafalashib qoldik. Ancha paytgacha gaplashmadik. Har gal uning yonidan o'tayotib, nega urishdim-a, deb o'ylardim. Lekin uzr so'rashga g'ururim yo'l qo'ymasdi. Nihoyat, chiday olmadim, shartta o'rnimdan turib ro'parasiga bordim-da, meni kechir, mendan o'tibdi, dedim. Uning ko'zlari chaqna ketdi va darhol, sen ham kechir, dedi. Shu voqea sabab birinchi bo'lib kechirim so'rash ham, kechirish ham oson emasligini o'z boshimdan o'tkazdim. Endi hech qachon do'stlarim bilan urushmayman, deb o'z-o'zimga so'z berdim.

Sardor MAJIDOV,
Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi 70-o'rt
maktabning 6-«V» sinf o'quvchisi

NODIRA «OLTIN TOJ» SOHIBASI

Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 1-bog'cha gimnaziyaning 5-sinf o'quvchisi Nodiraxon a'lochi, jamoatchi, faol qizlardan. O'zining tirishqoqligi, bilimga chanqoqligi bilan boshqalardan ajralib turadi. U badiiy ijod bilan ham muntazam shug'ullanadi. Nodiraning she'rlari, hikoyalari tuman, viloyat va Respublika matbuotlarida muntazam ravishda chop etilib turiladi. Ilm dargohidagi biron-bir tadbir uning qo'shiq raqslarisiz o'tmaydi. Hozirgi kunda kompyuter saboqlari va ingliz tilini puxta o'rganishga ahd qilgan Nodira o'z ustida tinimsiz ishlamoqda. Zukkoligi va bilimdonligi bois, O'zbekiston telekanalining «Oltin toj» bolalar teleo'yinida ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritdi. Nodiraning bu muvaffaqiyatidan ota-onasi, ustozlarining boshi ko'kka yetdi. Intilganga tole yor, deganlari shudir-da.

Jumagul XOLMIRZAYEVA,
tuman gazetasining jamoatchi muxbiri.



MAHALLANGIZ TARIXINI BILASIZMI?

Mahallamizning nomi «Bo'ston». Yaqinda uning tarixi bilan qiziqib, mahalla guzariga yo'l oldim. U yerda ustozimiz Farida opa Atametovani ko'rib, avvaliga hayron bo'ldim. Keyin bilsam, ular mahalla xotin-qizlar qo'mitasining raisasi ham ekanlar. Maqsadimni bilgach, mahallamiz tarixini so'zlay boshladilar:

-1960 yilda tashkil topgan «Bo'ston» mahallamizda 6190 nafar aholi tinch-totuv hayot kechirishadi. Mahallamizni «Ziyolilar mahallasi» ham deyishadi. Chunki bu yerda ko'plab taniqli davlat arboblari, shoirlar, olimlar, ziyoli



insonlar yashashadi. Bunday insonlardan O'rta Osiyo Diniy Nazorat boshlig'i Eshon Boboxon, o'g'illari Shamsiddinxon qori va ularning sulolasi, akademik Erkin Yusupov, Erkin Vohidov, professor Mannop Mirzamuhammedov, olim va shoir Odil Yoqubov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar G'ayrat, Lutfulla Sa'dullayev, Gulchehra Sa'dullayevalarning nomlarini faxr va iftixor bilan keltirishimiz mumkin.

Obod mahallamizning kundan-kunga yanada ko'rkamlashib borishida Shoahmad aka Isroilov, Vohid aka kabi unga oqsoqollik qilgan insonlarning xizmatlari beqiyosdir. Ayniqsa, mahallamizga 20 yildan ortiq vaqt mobaynida oqsoqollik qilgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, «El-yurt» ordeni sohibi, rahmatli otam Abdusalom aka Atametovning mehnatlarini mahalladoshlarimiz hecham unutishmaydi. Ular qurdirgan guzarlar, novvoyxona, masjid va choyxonalar elimiz xizmatida...

Ustozimning hikoyalaridan mahallamizga oid ko'plab ma'lumotlarni bilib oldim. Siz-chi, aziz tengdoshlarim, o'z mahallangiz haqida nimalarni bilasiz?

Mahmudjon AZIMOV,
Poytaxtdagi 169 - maktabning 7 - «G» sinf o'quvchisi.

SAYOHATDA BO'LSA MAZMUN - UNDAN BO'LAR HAMMA MAMNUN...

Mansurjon Komilov va sinf rahbarimiz Dilorom Yasanovalar hamrohlik qilishdi. Dastlab biz Farg'ona Davlat politexnika instituti qoshidagi «Yormozor» akademik litseyiga tashrif buyurdik. Akademik litsey kafedra mudiri Abduhalil Ahmedov bizni litsey hayoti va faoliyati bilan tanishtirar ekan, o'quvchilarga yaratilgan sharoitlar, kompyuter multimedia xonalari, kurubxonalar, ma'naviyat xonasi, sport zalari va dam olish xonalari olib kirdi. Kimyo laboratoriyasi xonasida

Farg'oniy nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida bo'lib, buyuk alloma poyiga guldastalar qo'ydik. So'ngra, yaqinda faoliyatini boshlagan Olimpiya zahiralari sport kollejiga tashrif buyurdik, bu yerda bizni o'quv ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosari Ravshanbek Jo'rayev hamrohlik qildilar. Mazkur kollejda tahsil olayotgan qo'qonlik talabalar bilan suhbatlashdik. Hatto kollej o'quvchilari bilan maktabimiz o'quvchilari o'rtasida basketbol bo'yicha o'rtoqlik uchrashuvi ham

biz uchun sayohat tashkil qilgan maktabimiz rahbari Mansurjon Komilovga, otaliq tashkilotimiz «Qishloqxo'jalikkimyo» aksionerlik jamiyati Qo'qon filiali xodimlariga, «Yormozor» akademik litseyi va Farg'ona olimpiya zahiralari kolleji jamoasiga o'z minnatdorchiligimizni bildirib qolamiz.

Elshod OTAJONOV,
Qo'qon shahar,
5-umumta'lim maktabining
7-«B» sinf o'quvchisi.

BOBOMGA

Sho'rgina boy bobom bolar,
Jo'shqinlikda soy bobom bolar.
G'ururimiz sizsiz, bobojon,
Qalb qo'rimiz sizsiz, bobojon.

Usta, dehqon, sarbon bobomsiz,
Fabi, ustoz, bog'bon bobomsiz.
Vovni quvgan Berlingga qadar,
Jangchi - shoir, do'st, yor bobomsiz.

Alp qomatim, qora qoshqinam,
Yoshligidan elga boshqinam,
Zamonlarga serbardoshqinam,
Suyanchig'im, oy - quyoshqinam.

Nasihatti har so'zingizni,
Ong-shuuringa tirgak qilaman.
Bosib o'tgan har izingizni,
Hayotimda o'rnak qilaman.

Bobojonim, soj' bo'ling omon,
Umringiz hech ko'rmasin zavol.
Shohsanamxon qilar armug'on,
Dil so'zlarim Sizga Bobojon!

Shohsanam LATIPOVA,
Sirdaryo viloyati, Yangiyer shahri.



Hech kuzatganmisiz, ta'til kunlarida ko'pincha mahallalar, ko'p qavatli uylarning atroflarida bolalar to'p-to'p bo'lib o'tirishadi. Nazarimda ular xuddi bekorchilikdan zerikib qolishgandek. Shunda, bo'sh vaqtlarini biror foydali ishga, biron-bir kasb-hunar o'rganishga sarflashsa bo'lmasmikan-a, deya o'ylanib qolaman. O'zlaridan so'rasam, mahallamizda hech qanday to'garaklar yo'q, uzoqroqqa borishga esa ota-onalarimiz ruxsat berishmaydi-da, deyishadi.

Maqtanish emas-u, bizning Tarnov nomli mahallamizda bekor yurgan bolani uchratolmaysiz. Ular nima bilan band, deysizmi? Keling, yaxshisi bu haqda mahallamiz raisi Toirov Bahodir akaning o'zlaridan eshita qolaylik:

-Mahallamiz hududida joylashgan A.Qodiriy nomli 3 - o'rta maktabda 623 nafar o'g'il-qiz ta'lim-tarbiya oladi. Yozgi ta'til kunlarini foydali, mazmunli o'tkazishga o'z hissamizni qo'shish maqsadida «Ittifoq» qishloq yig'ini qoshida tikish-bichish to'garagi ochganmiz. U yerda 35 nafar qiz va



juvonlar tikuvchilik sirlarini o'rganishyapti. Sportsevar bolajonlarimizni ham unutganimiz yo'q. 1-maktab qoshida mahalla va maktab hamkorligida tashkil qilingan karate to'garagi muntazam faoliyat ko'rsatyapti. Mahallamizda turli qiziqarli kitoblarga boy bo'lgan kutubxonamiz ham

«TARNOV» MIZGA BIR KELING

mavjud bo'lib, u ta'til kunlarida yanada gavjumroq bo'ladi. Bayramlar va tantanalarda bolajonlarimizga atab turli tadbirlar uyushtiramiz. Yaqinda 1-iyun - Bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan katta bayram tantanasi uyushtirdik, kam ta'minlangan oilalarning farzandlariga sovg'a-salomlar ulashdik, har biriga 10.000 so'mdan moddiy yordam ajratdik. Yaqinda Zangiota tumani hokimi Akmal aka Teshaboyevning sa'y-harakatlari bilan yana bir xayriy ishga qo'l urildi. «Ittifoq», «Turkiston» hamda «Qizil to'qimachi» shirkat xo'jaliklari raislari homiyligida bolalar uchun yangi sport majmuasi qurilishi boshlandi.

Kichik yoshdagi bolajonlar uchun qurilayotgan yozgi sport maydonchasi uchun ularning ota-onalari «Ittifoq» shirkat xo'jaligi boshlig'i Burxon aka Magjaliyevdan behad mamnun bo'lishyapti. Bolajonlar esa bu maydonchani tezroq bitishini sabrsizlik bilan kutishyapti. Mahallamiz bolalari orasida ijodkorlari ham talaygina. Nozima va Naima Rahimovalarning yozgan

juda quvondik, ularning shodligiga sherik bo'ldik.

Mahallamizdagi tengdoshlarim uchun yaratilayotgan sharoitlar yaxshi albatta. Lekin ularning bo'sh vaqtlarini yanada unumliroq, mazmunliroq o'tkazish uchun yanada ko'proq ish qilish kerak, nazarimda. Pazandachilikni, to'qishni, rasm chizishni, tilni o'rgatadigan to'garaklar ham ochilsa, qizlarimiz bajonidil qatnashishardi.

Aziz tengdoshlarim, sizning ta'til kunlaringiz qanday o'tyapti? Sizlar uchun yaratilayotgan sharoitlardan mamnunmisiz, shular haqida yozib yuboring.

Durdona QODIROVA,
Toshkent viloyati, Zangiota tumani.

she'r va maqolalari tumanimizda chop etiladigan «Istiqlol» gazetasida bosilib chiqqanda, biz ham




Yoz - o'tmoqda soz!

Yoz kunlari juda ajoyib-da: bir qarasangiz quyosh qizdirgandan-qizdirib, odamni lohas qilib yuboradi.

singillarimiz miriqib dam olishyapti. Maktab direktorimiz Mukarram opa Teshaboyeva, oromgoh

TOG' BAG'RIDA BO'LMASA HAM...



Biror fursat o'tar-o'tmas osmonni qop-qora bulut qoplaydi-yu, sharros yomg'ir quyib yuboradi. Bu holatni kattalar qanday qabul qilishadi bilmadimu, lekin bizning kayfiyatimizga zarracha ham ta'sir qilmaydi. Aksincha, bolajonlar yanada zavqlanib, qiyqirishadi, mittigina soyabonlar kutib olib, yugurishadi. Xullas, maroqli ta'til kunlarini davom ettiraverishadi.

Odatda ta'til kunlarida ko'pgina maktablar huvillab qoladi. Bizning Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 281-maktabimiz esa aksincha, avvalgisidan ham gavjumroq. Maktabimiz qoshida tashkil qilingan oromgohda uka va

tashabbuskori Nigora opa Azimova, maktabimiz ilmiy mudiri Nazira opa Boboyevalar ular qoshida parvona. Oromgohimiz xushmanzara tog' qo'ynida joylashmagan bo'lsa-da, shart-sharoitlari ularnikidan qolishmaydi. Turli to'garaklar bolajonlar bilan gavjum. Har kuni qandaydir tadbir yoki sport bellashuvlari o'tkazishadi. Saylgohlarga, muzeylarga borishadi. Kechki payt ko'tarinki bir kayfiyatda ota-onalari bag'riga qaytishadi. Mahallada esa ularni o'rtoqlari kutib turishgan bo'ladi. O'yin yana qizigandan-qizib ketadi.

Gulshan ERGASHEVA.

«Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jam'armasi Orolbo'yi hududlarida istiqomat qilayotgan kam ta'minlangan oila farzandlari, boquvchisini yo'qotgan va «Mehribonlik uylarida» tarbiyalanayotgan bolalar uchun ko'plab xayriya tadbirlarini o'tkazmoqda.

Bo'stonliq tumanidagi «Quyoshli» oromgohida dam olayotgan Orolbo'yi bolalariga ularning sog'ligini mustahkamlash maqsadida turli dori-darmonlar, multivitaminlar topshirildi. Uni jamg'arma bo'lim mudiri Jumabek Norov topshirdi. Tadbir doirasida jamg'armaning tibbiy-ijtimoiy patronaji mutaxassislari oromgohda dam olayotgan qoraqalpog'istonlik bolalarni tibbiy ko'rikdan o'tkazdilar. Ular Toshkent viloyati SPID markazi mutaxassisi, tibbiyot fanlari nomzodi Baxtiyor Rasulovning «Giyohvandsiz - hayot sari» suhbatidan ham bahramand bo'ldilar.

«Quyoshli» oromgohiga bobo Quyosh erta tongdanoq nurlarini socha boshlaydi. Billur havodan to'yib-to'yib miriqib nafas olayotgan bolalar uyqudan tura solib oromgohning jo'shqin hayotiga kirishib ketadilar. Ertalabki gimnastika muskullarni chiniqtiradi. Yugurush mashqlarida hech kim safdan ortga qolgisi kelmaydi. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi Rashid Ibragimov boshchiligida mashqlarni tugatgan bolajonlar saf bo'lishib nonushta qilishga yo'l olishadi. Bu yerda ularni Tatyana Semyonovna boshchiligidagi oshpaz opaxonlar shirin kulchalar, sut va

«QUYOSHLI»NING QUYOSHLI KUNLARI

kashalar bilan siylashadi. Ertalabki nonushta tugagach, har kim o'zi sevgan mashg'uloti bilan band bo'ladi. To'qish to'garagiga qatnayotgan Iroda Mavlonova tezda dugonalari Sevara, Xurshida, Nargizalarni ham boshlab keldi. O'ttiz chog'liq to'garak a'zolari Inobat Sidiqova rahbarligida savatcha, choynak tagligi, munchoqlar tayyorlash, aplikatsiyalar yasashni o'rganishyapti.

Ko'zlari munchoqdek yaltirab turgan kuchukcha, quyuncha, ayiqchalar bolalar o'z qo'li bilan tayyorlashgani uchun ham juda qadrlil tuyuladi.

Keyingi xonalarga kiramiz. Turli-tuman kitoblar bilan to'lgan xonalar hamisha gavjum. Kutubxona mudirasi Zinaida Asqarova rejalashtirgan tadbirlar, Alisher Navoiy, Muhammad Yusuf ijodiga bag'ishlangan suhbatlar, turli savol-javob kechalari barchani qiziqtiradi.

Kutubxonada badiiy kitoblar o'zbek tilida ko'proq bo'lsa o'quvchilar uchun «Sog'lom avlod», «Tong yulduzi», «Gulxan», «G'uncha» kabi bolalarning sevimli nashrlari keltirilsa nur ustiga a'lo nur bo'lardi, bizningcha. Bolalar

sportga astoydil mehr qo'ygan. Quvlon Shumashov dzyudo bo'yicha Nukusda 3-o'rinni olgan bo'lsa, to'rtko'llik Otabek Mirsharipov o'zbek kurashi bo'yicha tumanda g'olib chiqqan. Ellikqal'a tumanidagi 69-maktab o'quvchisi Dilmurod Jumaniyozov esa karate bo'yicha 2-o'rinni olgan. Ulug'bek Sa'dullayev, Aziz Qurbonboyev, Ixtiyor Otamurodov, Baxt O'rozboyevlar voleybol musobaqalarida, «Quvnoq



startlar» o'yinlarida epcilligi va chaqqonligi bilan ajralib turibdi. Hozir ular oromgoh spartakiadasiga qizg'in tayyorgarlik ko'rishyapti.

Kuni kecha oromgoh ochilishiga bag'ishlangan katta gulxan yoqildi. Beg'ubor bolalik orzulari gulxan yoqinlariga qo'shilib, osmonlarga intilayotgandek tuyuldi. «Quyoshli»ning har kuni ana shunday sermazmun, sho'x-shodon o'tmoqda.

Zamira TO'LAGANOVA,
Toshkent viloyati.

OH, BUNCHALAR SHIRIN
BO'LARKAN FARZAND!

Olamga zavq olib kelarkan farzand,
Turmushni charog'on qilarkan farzand.
Yuraklarga tug'yon solarkan farzand,
Oh, bunchalar shirin bo'larkan farzand!

Finchligu quvnoqlik tilarkan farzand...
Sevgining ramzi - gul, lola yaxshidir,
Qizu o'g'il bo'lsin, bola yaxshidir.
Har bir oilada bori yaxshidir,

Ko'ngillar rishtasi bo'larkan farzand,
Oh, bunchalar shirin bo'larkan farzand!
Farzand bilan axir qalb uyi obod,
Ular bilan totli, lazzatli hayot.

Bolalar kulgusi aylar dilni shod,
Dunyoni charog'on aylarkan farzand,
Oh, bunchalar shirin bo'larkan farzand!
Muhabbat, sadoqat mudom bor bo'lsin,

Farzand bilan qalblar quvonchga to'lsin.
Har kim o'z dilbandin baxtiyor qilsin,
Murodga intilib, kularkan farzand,
Oh, bunchalar shirin bo'larkan farzand!



OLAMNING SHODLIGI

Hayotimiz gullaridir bolalar,
Ko'zimizning nurlaridir bolalar.
Ular bilan turmushimiz totlidir,
Ular bilan baxt, iqbol qanotlidir!

Shirin, biyron tillarida ko'p ma'no,
Go'yo jaji olim, shoiru dono!
Ular el-yurt ardog'ida yashaydi,
Kulgusidan dillarimiz yashnaydi!

Softligu, quvnoqlik timsoli shular,
Kelajak bog'ining bog'boni shular.
Ko'ngil obodligi - bolalar bilan,
Olamning shodligi - bolalar bilan!

Shoirlar bolalarga

Murod RAHMON

UMIDA

Buving ko'ziga o'xshar ko'zlaring,
Bobong yuziga o'xshar yuzlaring.
Muncha shirindir - burro so'zlaring?
Oying asal qizisan, Umida,

Dadajoning o'zisan Umida.
Hur Vatanda baxtiyor yasharsan,
Oilada mehrlan yashnarsan.
Har ishda «yordamlashib», pisharsan...

Ulug' millat qizisan, Umida,
Orzular parvozsiz, Umida!
Xulq - o'lobda a'lo bo't-bebaho,
Aqlingga lol, desinlar: «Jasanno!»

Kulging bilan zabt etgin sen dunyo,
Shodliklar ovozsiz, Umida,
O'zbekiston qizisan, Umida!
Ilm olarsan qay oliy makonda,

Kashfiyotlar qilarsan jahonda...
Iqboling bor shu gulgun zamonda,
Go'zal davr qizisan, Umida,
Sen qo'shiqlar sozisan, Umida!

Hushyor qadam tashlasang hayotga,
O'yab-kulib yetarsan murodga!
O'rgan sabru vafoga, sabotga...
Kelajak yulduzsiz, Umida,
O'zbekiston qizisan, Umida!

OYIJONIM

Dunyoda eng mo'tabar zot, aziz, bebaho,
Sizga ta'zim qilur barcha: shohmi yo daho...
Sizdan o'lgan ekan bizga asli ishq, vafu,
Siz bilan yashash shirindir, umr-serma'no!
Men uchun bu gul hayotda Siz-Quyosh, Oyim,
Oyijonim,
mehribonim,
sog' yashang doim!

Sizni bir dam ko'rmasam gar, ko'nglim g'ashlanar,
G'am cheksangiz, beixtiyor ko'zim yoshlanar...
Sizni xursand ko'rsam, ishda zafar boshlanar,
Agar duolar qilsangiz, dilim shod, yashnar!
Men uchun bu gul hayotda Siz-Quyosh, Oyim,
Oyijonim,
mehribonim,
sog' yashang doim!

Sizga xosdir sabru toqat, matonat, g'ayrat,
Kipriklar-la asragaysiz bizlarni har vaqt.
Dadamni ko'p izzatlaysiz, bu - bizga ibrat,
Murod uchun tilagaysiz faqat omad, baxt!
Dunyodagi eng mo'tabarim, Siz-Quyosh, Oyim,
Oyijonim,
mehribonim,
sog' yashang doim!

OROMGOHDA ADABIY UCHRASHUV

«Zangori olov» bolalar yozgi oromgohi Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanining Xo'jakent qishlog'i biqinidagi baland tog'lar yonbag'rida joylashgan. Yaqinda bu yerda yosh kitobxonlar bilan adabiy kecha o'tkazildi. Respublikamizning taniqli olimu yozuvchilari, shoiru noshirlari tushgan ulovlar ilonizi yo'llardan oromgoh tomon yuqorilab borarkan, balandlikdan atrofga boqib, nihoyatda go'zal manzardan zavqlangan cha «vohh!» deb yuborganimizni sezmay ham qoldik. Chorbog' tomondan oftob nurlari bilan qorishiq, mavjlanib ko'zlarni jimirlashtirayotgan zumrad suv atrofini qoplagan ko'm-ko'k vodiy, purviqor tog'lar bilan shunday ajoyib suvrat hosil etganki, uni entikmay, hishayajonsiz tomosha qilib bo'lmaydi. shunday so'lim joylar bag'rida farzandlarimiz yayrab-yashnab, hordiq olayotganlaridan mamnunlik hislarini kechirgan cha oromgohga kirib bordik. 220 nafar o'g'il va qiz akademik Matyoqub Qo'shjonov, yozuvchilar Dadaxon Nuriy, Erkin Malikov, shoir Shukur Qurbon, noshir Nazira Jo'rayevani quvonch bilan kutib oldi. Bolalar tilini yaxshi tushunadigan, ular

davrasiga kirganda o'zi ham bola bo'lib ketadigan yozuvchi-shoir Erkin Malikov davrani boshqardi. U kitobsevarlarni mehmonlar bilan birma-bir tanishtirarkan, ijodkorlarni «yuruvchi kitoblar» deb atadi. Yozuvchi va shoirlarning har biri bir nechalab kitoblar muallifi ekanini, ular bilan suhbatda o'zlarini qiziqtirgan savollarga bemaol javob topishlari

A l m u m -



kinligini aytib, yig'ilganlarni faollikka undadi.

Akademik Matyoqub Qo'shjonov Ikkinchi jahon urushi davridagi voqealaridan so'zlab, tinchlik, musaffo osmon ulug' ne'mat ekanini ta'kidladi. Mehmonlarning har biriga so'z berar ekan, tadbirni boshqarayotgan Erkin aka

bolalarbop savollarni o'rta tashlab, ularni faollashtirib qo'yardi. Chunonchi, topishmoq aytib, eng birinchi javob topgan bolaga sovg'a ulashar, yod olgan she'rini ifodali o'qigan yoki qo'shiq aytib bergan faollarga kitob hadya qilardi. «Sharq» nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati tomonidan chop etilgan yangi kitobchalar o'g'il-qizlar

qo'lga tekkach, bir zumda qo'lma-qo'l bo'lib, davrani aylanib chiqdi. So'zga chiqqan har bir ijodkor farzandlarni kitob o'qishga undab, ijodiy rejalarini haqida o'rtoqlashdi.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tizimidagi G'afur G'ulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, «Ijod dunyosi» nashriyat uyi, «Cho'lpon»

nashriyoti, «Kitob dunyosi», «Tong yulduzi», «Klass» gazetalarini, «Gulxan» jurnallarining tahririyatlari nomidan oromgoh kutubxonasiga turli kitoblar, gazeta va jurnallarning namunalarini topshirildi. Bolalar ham quvonchlarini yashirishmadi, raqsga tushib, mashqlarni bajarishdi, mohir qo'llar to'garagida yasalgan buyumlarini sovg'a qilishdi.


Tadbir

Oromgoh rahbari Yo'ldosh Xolmetov so'zga chiqib, mehmonlarga minnatdorchilik bildirdi va bunday adabiy-badiiy uchrashuvlar kichikintoylar xotirasida umrbod saqlanishi, ularda kitob o'qishga havas ortishiga umid bildirdi. Oromgoh bag'rida dam olayotgan aka-uka Farrux va Ibrohim Yusupovlar biz bilan suhbatda shunday deyishdi:

- «Zangori olov» oromgohiga har yili kelamiz. sharoit juda yaxshi. Murabbiy va yetakchilarimiz juda mehribon, shirinso'z. Bositxon Mahamatov esa oromgoh kutubxonasidan olgan kitobini bugun o'qib bo'lib topshirganini aytarkan, ertaga xayrlashuv gulxani o'tkazilishi, biz keltirgan kitoblarni o'qishga ulgurolmasligidan afsuslandi. O'n sakkiz kunlik dam olish muddati ko'z ochib yumguncha o'tgani, bu yerda orttirgan do'stlaridan hech ayrilgisi kelmayotganini bildirdi.

Ijodkor yosh kitobxonlar bilan xayrlashayotib, bunday uchrashuv an'anaga aylanajagiga, ular huzuriga tez-tez kelib turishga so'z berdilar.

Gulchehra MUHAMMADJON,
«Kitob dunyosi» gazetasi bosh muharriri.



Afinada musobaqalar boshlanishiga 19 kun qoldi.

Olimpiya mash'alasi Yer kurrasi bo'ylab odimlamoqda. Ushbu haftada Osiyoni kezib chiqqan mash'ala dastlab shimolda bo'ladi, so'ngra Misrda, keyin esa Janubiy Afrika Respublikasi sari yo'l oladi.

Olimpiya mash'alasi Xitoyning osmono'par balandliklarida ikki kun mobaynida lovullab yonib turdi. Uni Buyuk Xitoy devoridagi tasviriy san'at namoyish qilinadigan Mutyanuyda katta tantana bilan kutib olishdi.

Keyingi kun mash'ala Xitoy xalq Respublikasi poytaxti Pekinda, so'ngra Hindistonda bo'ldi. Olimpiada ramzini kutib olishga bag'ishlangan tantanani Nyu Deli bosh vaziri Sheyla Dikshit xonim ochdi. Estafeta shahar ko'chalari bo'ylab davom etdi.

Turli rangdagi tasma - havo ilonlari bilan to'lib ketgan osmonga boqib, tomoshabinlarning zavqi jo'shib ketdi.

Girliyanda va dafna gulchambarlari bilan o'ralgan mash'alani Milliy olimpiya qo'mitasi Prezidenti Suresh Kalmadi qabul qilib oldilar. 105 kishilik estafeta a'zolari Hindiston poytaxtining eng diqqatga sazovor joylari bo'ylab 33 kilometrli masofani bosib o'tishdi. Mash'alachilar orasida kriketchilar jamoasi, alpinistlar va merganlar, parlament deputatlari, maktab o'quvchilar, taniqli kinoyulduzlari ham bor edi. Juma kuni mash'ala Misrda bo'ldi. Uni yangi Dehlidan bortida olimpiya ramzi bo'lgan «Zevs» samolyotida olib kelishdi.

Qohirada ikki oy mobaynida bo'lib o'tgan saralash musobaqalarida g'olib chiqib, 108 sportchi mash'alani ko'tarib o'tish sharafiga muvassar bo'lganlar.

Milliy olimpiya qo'mitasi raisi general-leytenant Munir Sabit estafeta qatnashchilariga oq rangdagi maxsus kiyimlarni tuhfa etdi. Qohiradagi tantanadan so'ng, mashhur grek qo'shiqchisi Demis Russos konsert berdi. Markaziy olimpiya qo'mitasi binosidan olib chiqilgan mash'ala butun shahar bo'ylab olib o'tiladi. Masofasi 34

hamma ishni so'nggi daqiqalarda qilishga odatlangan ekanlar...

Chorshanbadan payshanbaga o'tar kechasi Olimpiya olovining estafetasi AQSHga yetib keldi. Los-Anjeles shahridan boshlangan safarda Silvester Stallone, Tom Krus, Vitaliy Klichko singari mashhur sportchilar qatnashdilar. Estafetada jami 140 kishi qatnashdi.

orasidagi 93 yoshli keksa sportchi ayol Rozario Iglesias ham olovni ko'tarib o'tdi. Eng qizig'i - yengil atletika bilan u 80 yoshdan oshganida shug'ullana boshlagan ekan.

Xitoy poytaxti Pekinga muqaddas olov maxsus reaktiv samolyotda yetkazildi. 55 km.li 148 nafar estafetachi masofani bosib o'tdi. Jahon basketbol «yulduzi» Yao Min ham olovni ko'tarib chopganlardan biri bo'ldi. Ukrainada ham Olimpiya olovi estafetasi 38 km.ni tashkil etdi. Mashhur kishilar va sportchilardan iborat 120 kishi har 300-350 metrda bir-biri bilan o'rin almashishardi.


Janubiy Afrika Respublikasida «mehmon bo'lgan» Olimpiya estafetasida mamlakatning sobiq Prezidenti Nelson Mendela ham qatnashdi.

Rossiyaga mash'ala Xelsinkidan keltirildi. Bu voqea moskvaliklarni behad quvontirdi. Estafeta Kreml devorlari yonidagi Vasilyev spuskiyda yakunlandi. Mash'alani ko'tarib borganlar orasida Sergey Panov, Vyacheslav Fetisov, Pavel Bure va Aleksandr Lebyzak singari sportchilar bor edi.

Olimpiya mash'alasi 13 avgustda yoqiladi.

Internet xabarlari asosida Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi.

OLIMPIYA MASH'ALASI DUNYO KEZADI



kilomertini tashkil etgan estafeta Nil daryosi bo'yida nihoyasiga yetadi.

4 iyundan 8 iyulgacha mash'ala besh qit'a, 27 mamlakatdagi 34 shaharni aylanib o'tishi ko'zda tutilgan. Avgust oyida mash'ala o'zining tarixiy vatani - Afina shahriga qaytib keladi.

Afina madaniyat ishlari va sport vazirligi shu kunlarda butun mamlakatni bayramona ko'rinishga keltirish uchun astoydil harakat qilishyapti. 1997 yildayoq olimpiada o'tkazish huquqini qo'lga kiritgan Gretsiyada Xalqaro olimpiya qo'mitasining qat'iy talabi bilangina tayyorgarlik ishlari kuchaytirilgandi. Endi esa ikki yil mobaynida qilib ulgurilmagan qurilish ishlarini 50 kun ichida uddalashga to'g'ri kelyapti. Avvalgi hukumatning taysallanishi endilikda juda qimmatga tushadigan bo'ldi-da...

Ha, Gretsiyada Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik sustligini greklarning mentaliteti bilan bog'lashmoqda, ular

Mash'ala Sent -Luis, Atlanta va Nyu -York shaharlarini kezib, so'ngra Yevropaga qaytadi. Olov bilan har bir mamlakatda turli voqealar ro'y berdi.

Mash'ala Braziliyadan olib o'tilganda 10 soatli marafon bo'ldi. Unda 120 dan ziyod mashhur sportchilar, aktyorlar va boshqa nomdor kishilar qatnashishdi. Yuzlab kishilar estafetachilarni kutib olish uchun

ko'chaga chiqdilar. Janubiy Afrikada bunday tantana bo'lmagan edi. Rio de Janeyro estafeta o'tadigan Amerikadagi yagona shahar qilib tanlangan. Ishtirokchilar orasida mashhur futbolchi Ronaldo ham bor edi. Meksikada mash'ala 52 km.li masofani bosib o'tdi. Estafetachilar



CHEMPIONLARGA BOY MASKAN



Bugun yurtimizning qay bir go'shasiga bormang, yuzlab iqtidorli sportchi yoshlarni uchratasiz. Sport shukuhi, sport mehri bilan yashayotgan bolalarning zavqini ko'rib, behad quvonasiz. G'ijduvondagi 7-Bolalar va o'smirlar sport maktabi ham mana 25 yildirki, yuzlab farzandlarimizni jismonan baquvvat, ma'nan boy bo'lib o'sishida o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Xalqaro musobaqalarda yurt bayrog'ini sarbaland etib kelayotgan yosh sportchilar Koreya, Xitoy, Istanbul, Moskva va Vyetnam kabi davlatlarda bo'lib qaytishdi. Bu maktabda bolalar sportning og'ir atletika, milliy kurash, dzyudo, basketbol, futbol turlari bilan shug'ullanishadi. Ularga mohir murabbiylar saboq berishadi. Sport maktabining og'ir atletika to'garagi murabbiyi Marat aka Olimov, sog'lomlashtirish to'garagi rahbari Jo'raqul aka Norqulov, qo'ljangi bosh murabbiyi Botir aka Rahimov, dzyudo to'garagi murabbiysi Iroda opa Shodiyevalar mehnati tahsinga sazovor.

Sport maktabi qoshidagi milliy kurash va dzyudo bo'yicha viloyat qizlar terma jamoasi rahbari Ilhom aka Azizov shogirdlari haqida zo'r g'urur bilan gapirib berdilar.

-18 nafar o'quvchimiz xalqaro musobaqalarda birinchi o'rinni olib kelishdi. Ular shu kunlarda

O'zbekiston chempionlari bo'lib, yurtimiz oliygohlariga imtiyozli qabul qilindilar.

Dilafro'z Otayeva, Sveta Jabharova, Iroda Yo'ldosheva, Sayyora Majidova, Yevgeniya Zaxarova kabi mamlakat chempionlari shu maskanda ishlab, o'zbek sport ustalarini tarbiyalamoqdalar. Men ham bir vaqtlar shu maktabning basketbol jamoasi ishtirokchisi edim. Biz o'qigan davrlarda BO'SM Pushkin maktabi yonida joylashgan bo'lib, shu maktabning sport zalida shug'ullanardik. Endilikda G'ijduvonda minglab yoshlar sport bilan bemalol shug'ullanib, qulay imkoniyatlarga ega bo'lmoqdalar. Farzandlarimiz kamoli ularning sog'lom turmush tarziga bog'liq albatta. Yaqinda yurtboshimiz e'tibori va g'amxo'rliqi bilan shahrimizda 500 o'rinli zamonaviy qulayliklarga ega bo'lgan sport saroyining qad rostlashi barchamizni quvontirdi. Yillar davomidagi orzumiz ushaldi. Bugungi kunda 60.000 o'quvchisi bo'lgan bu tumanimiz murabbiylari zimmasiga yana ham mas'uliyatli vazifa yuklatildi.

Ozoda MUHAMMEDOVA.

QIMMATGA TUSHGAN ZIYOFAT

O'quv yilining so'nggi kunlari edi. Maktabni bitirish arafasida turgan 9-sinf o'quvchilari sinfdoshlari Farhodning tug'ilgan kuni bahonasida bitirish kechasini ham o'tkazish haqida kelishib olishdi. Sinfdoshlar to tonggacha o'tirishadigan bo'lishdi.

Lobar oyisidan qanday ruxsat so'rashni bilmay, boshi qotdi. Oxiri oyisining kayfiyati yaxshi bo'lgan kuni bitirish kechasiga borishga ruxsat berishini so'radi. Oyisi: - Shu, kechasi qolib ketishlaring chatoq ekan-da, - dedi.

-Oyijon, shuning uchun ham «Oq tun» deyishadi-da. Yana Farhodning ham tug'ilgan kuni, axir u bilan birga katta bo'lganmiz-ku, - dedi Lobar yerga qarab. Oyisi ikkilanibroq ruxsat berdi.

Lobar ziyofatga borganida, hamma yig'ilib bo'lgan, davraning to'rida Farhod o'tirardi. U qo'lidagi sovg'ani Farhodga berib, qizlarning yonidan joy oldi.

-Farhodning 17 yoshga to'lishi munosabati bilan «yuzta-yuzta» otamiz, -dedi sinfdoshi Temur. O'g'il bolalar bunga qarshilik bildirishmadi. Qizlar sinfdoshlarini tanishmasdi... ular bemalol ichkilik ichishar, ba'zilar sigaret tutatib o'tirishardi. Shirakayf bolalar o'rnilaridan turib, qizlarni o'yinga taklif qila boshlashdi. Temur Lobarni o'yinga taklif qildi. Bir-ikki o'yin o'tgach, u Lobarni dam sochidan tortib, dam qo'lidan tortqilay

boshladi. Bu Lobarning nafsoniyatiga tegib ketdi va iltijoli ko'zlari bilan sinfdoshlariga qaradi. Toqati toq bo'lgan Lobar qo'llaridan ushlab olgan Temurni bor kuchi bilan itarib yubordi. Temur muvozanatini saqlolmay, idishlar taxlangan shkafga borib urildi. Yerga yiqilgan Temurning boshidan tirqirab qon oqardi. Bunday vaziyatni kutmagan sinfdoshlari bir zum qotib qolishdi. Temur o'ziga kelavermagach, Farhod «Tez yordam» chaqirishga ketdi, qolgan bolalar Temurni boshidagi jarohatini yuvib, tozalashdi. «Tez yordam»da kelgan shifokor Temurni ko'p qon yo'qotganligi uchun shifoxonaga olib ketdi.

Farhod va yana ikki bola u bilan birga ketishdi. Lobar o'zini qo'yarga joy topa olmasdi. Qizlar uni shuncha yupatishsa ham, u qizlarning gapini eshitgisi kelmas, xayollari uni ming bir ko'chaga olib kirardi. Tongga yaqin Farhod uyiga qo'ng'iroq qildi va Temurni ahvoli ancha yaxshi ekanligini aytdi. Bu gapni eshitgan Lobarning rangiga qizillik yugurdi, lekin bo'lib o'tgan voqea ko'ngliga xijillik solar, Temurning qonga belangan yuzi ko'z oldidan ketmasdi.

Ha, «Oq tun» ularga juda qimmatga tushgandi...

Venera TURDIYEVA,
Toshkent viloyati,
Parkent tumanidagi
15-o'rta maktab o'quvchisi.

YURAGIMNI «O'G'IRLAB» KETDING...

Men bu maktubni yozishga ko'p ikkilandim. Avvaliga sinfdoshlarim ustimdan kulishadi, deb o'yladim. Oxiri yozmasam bo'lmasligini angladim.

Muhabbat, deganlarida men bepisandgina qo'l siltab qo'yordim. Ayniqsa, maktabdagi tengdoshlarim sevib qoldim, deyishsa, ularning ustidan kulardim...

Ammo... Bir kuni sinfimizdagi Farangiz degan qizning tug'ilgan kuniga bordik. Bu qizga avvallari uncha e'tibor bermagan ekanman. Saranjom-sarishta qilib, chiroyli bezatilgan uyda Farangiz oppoq ko'ylakda sinfdoshlarini kutib olardi. Unga qaradimu, yuragim hapriqib ketdi. Qo'llarimdagi gulni unga beraman deymanu, oyoq - qo'llarim titrab ketadi. Menga nima bo'ldi, deyman ichimda, rangim ham oppoq bo'lib ketgan bo'lsa kerak?

-Senga nima bo'ldi, Farruh?-degan jarangdor ovozdin o'zimga keldim. Farangiz menga kulib boqar, shu tabassumi meni battar qiyin ahvolga solardi. Tug'ilgan kun juda zo'r o'tdi. Ertasi kuni bu haqda sinfdoshim Botirga aytdim. Uning maslahati bilan Farangizga xat yozdim. U esa, yaqinda bu yerdan poytaxtga ko'chib ketishi, bu muhabbatning oxiri yo'qligi haqida javob xati yo'llabdi. Oradan uch oy o'tar-o'tmas, Farangiz poytaxtga ko'chib ketdi. Lekin bir-birimizga maktub yo'llab turdik. Bir kuni u yozgan xatim dadasining qo'lga tushib qolganini va ulardan dakki eshitganini, boshqa xat yozmasligim kerakligini yozibdi... Endi Farangiz bilan faqat xayolan suhbatlashaman...

Farruh ESHMATOV,
Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani.



Qulog'ingga gapim bor

TENGDOSHLARIMDAN UYALAMAN

Mening ismim Sohiba. Oilada uch qiz va bir o'g'ilmiz. Oyim maktabda farrosh bo'lib ishlaydilar. Bu yil 10 sinfga o'tdim. 9-sinfni bitirib, bu yerlardan qochib ketishni qanchalik xohlaganimni bilsangiz edi. Nega bunday deyatoganimga hayron bo'lmang. Qiz

bola epli bo'lishi kerak, degan xayol chuqur o'rtnashib, qolgani uchun uy yumushlaridan tortib, sigir buzoqqa ham o'zimiz qaraymiz. Sigirlarni sog'ib, sut, qatiq sotamiz. Bu ishni bajarish doimo janjalga sabab bo'ladi. Chunki singillarim bu ishni qilishdan bosh tortishadi. Ukam hali kichkina. Oxiri katta sumkalarni olib, o'zim mahallalarga chiqishga majbur bo'laman. Meni ko'rgan yosh bolalar masxara qilib qochishadi. Ba'zida sinfdoshlarimning onalari sutingdan olib kel, deb qolishadi. Ularning uylariga kirib, sut quyib berishga majbur bo'laman. Shunda sinfdoshlarimdan uyalib ketaman. Uyida mazza qilib televizor tomosha qilib o'tirgan yoki ta'til kunlarini bekor o'tkazmasdan, turli o'quv kurslariga kirib o'qiyotgan tengdoshlarimni ko'rsam, ularga havasim keladi. Yaqinda 9-sinfni bitirib ketayotgan sinfdoshlarimiz bilan ziyofat qildik. Men qo'shila olmadim. Shunda sinfdoshim Shohida: «Sutni pulidan olmadingmi?» deb qoldi. Bu gapi menga juda alam qildi. Lekin tengdoshlarimning bu gaplariga be'tibor bo'lishga majburman. Chunki, tirikchilikni aybi yoq, shunday emasmi?

Sohiba ABDURAHIMOVA,
Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani.

Bahorning ajoyib kunlaridan birida totuv va boy-badavlat oilada jajjigina qizaloq dunyoga keldi. Oilasidagilar uni yeru ko'kka ishonishmas, yerga qo'yishsa, chang, ko'kka qo'yishsa gard yuqadigandek avaylab-asrab katta qilishardi. Kun ketidan kun, oy ketidan oy o'tib, qizaloq ulg'ayib, sohibjamol qizga aylanibdi. Uni bir ko'rgan odamning yana bir bor ko'rgisi kelar, o'tganlar unga havas bilan boqishardi.

Bundan mag'rurlanib, ko'klarda uchib yurgan qiz uncha - muncha odam bilan gaplashgisi kelmas, hech kimni pisand qilmas edi. U suvga borganida unda o'z aksini ko'rib, mahliyo bo'lib qolar, suv bo'yida anchagacha qolib ketardi.


Bir kuni odatdagidek suvga borib qaytayotlsa, oldidan bir kampir chiqib qolibdi. U qizga: «Qizim, bir qultumgina suvingdan ber, juda chanqab ketdim», debdi. Qiz kampirga

qayrilib: «Senga suv beraman deb olib kelayotganim yo'q bu suvni, ichging kelsa, bor, anavi chashmadan ichgin», deb qo'rslik qilib, ketib qolibdi. Bu gaplardan kampirning dili og'ribdi. «Xudo senga husn beribdi-yu, aql - zakovat, mehru oqibatdan qisib qo'yibdi», debdi-da, yo'lida davom etibdi. Qiz esa bunga parvo ham qilmabdi. Ertasi kuni yana suvga kelgan qiz chashmaga egilib, husnini tomosha qila

boshlabdi. Shunda Xudoning g'azabi kelib: «Senga men husn berdim, ammo sen uni qadriga yetmading. Endi jazoingni tort», debdi. Qiz pastga egilgan ko'yi daraxtga, uning uzun sochlari daraxtning uzun shoxlariga aylanib qolibdi... Odamlar bu daraxtni majnuntol deb atashibdi. Chunki qiz o'z husniga majnun kabi oshiq edi-da. Shunday qilib, u bir umr chashma bo'yida qolib ketibdi.

Guljahon ATABOYEVA,
Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi
20-maktab o'quvchisi.

MAJNUNTOLGA
AYLANGAN QIZ



Yaxshilik... Bebaho fazilat. U hammaning qo'lidan keladi. Faqat dilingiz unga moyil bo'lsa bas. Kimgadir ozgina yordamingiz tegib, uning minnatdor nigohini his etsangiz, dunyoda sizdan baxtli insonning o'zi bo'lmaydi. Bir kuni ko'chada o'rtoqlarim Dildora, Nodira, Nargiza, Muhayyolar bilan

O'zimiz ertak yozamiz

o'ynab o'tirsam, qo'shni qiz Nigina yap-yangi velosipedini ko'z-ko'z qilib yetaklagancha olib, qarshimizga kelib to'xtadi. Barchaning ko'zi nihoyatda bejirim ishlangan chiroyli velosipedda edi. Uni zumda, voy qachon olding, kim olib berdi, necha so'm ekan, kabi savollarga ko'mib tashlashdi. «Bu sovg'a. Dadajonim tug'ilgan kunimga olib berdilar».

Nigina shunday

YAXSHILIKNI BILMAGAN NIGINA

dedi-yu, velosipedni haydashga tushdi. Rulni boshqarolmay bir-ikki qalqidi-yu, yiqilib tushdi. Buni ko'rgan Nodira yugurib borib Niginani o'rnidan turg'azdi. Yomon yiqilmadingmi? U Niginaning kiyim-boshini qoqib, velosipedga o'tqazdi-da, sekin-asta haydashni o'rgata boshladi. Ikki-uch kundan so'ng Nigina velosiped haydashni ancha o'rganib oldi va bemalol hayday boshladi. Endi Nodiraning unga keragi bo'lmay qolgandi. O'zi tengi o'rtoqlari uning atrofini o'rab olishgan, u bo'lsa qiyiqirib kulardi. Bir chekkada mung'ayib, hayron boqib turgan Nodiraning yoniga velosipedda kelib, qo'li bilan uni, qoch, deya itarib yubordi-da, yonidan g'izillab o'tib ketdi. Hammamizning nigohimiz Nodiraga qadaldi. U na yig'lashini, na bizga qo'shilib o'ynashini bilmay ikkilanib qoldi. Bir zum kalovlanib turdi-da, yig'lagancha uyiga yugurib ketdi. Singlisi Nargiza esa opasining ketidan chopdi. Biz bu voqeadan qattiq ta'sirlandik. Nodiraga rahmimiz keldi. Niginaning ortidan esa barcha birdek «yaxshilikni bilmagan qiz», deb qoldi.

Mohinur HAYDAROVA, o'quvchi.



Har tong quyosh bilan barobar uyqudan turaman. Yuz-qo'limni shosh-pisha yuvgancha bobojonim va buvijonimning oldilariga yuguraman. Ular bilan birgalikda nonushta qilib olgach, kundalik sevimli mashg'ulotimiz gazeta va

gazetadagi barcha harflarni bemalol o'qiydigan bo'ldim. Bora-bora bu eng sevgan mashg'ulotimga aylandi. Qarabsizki, alifbeni qo'lga olmasdan turib, barcha harflarni o'rganib oldim. Shu bois 1-sinfga o'qishga borganimda hecham

Qo'llaridan sevimli gazetamizni olgach, tortishib- talashib o'qishga tushardik. Uzoq vaqt bahslashardik.

Ammalaring, tog'alaringga ham o'zim harf tanitganman. Xuddi sen kabi ularni ham

qarshilayotgan bobomning berilib «Tong yulduzi» gazetasini o'qiyotganini ko'rib, sekin yonlariga borib o'tiraman. Hozir qiziqarli sahifani topadilar-da, har galgidek ovozlarni chiqarib bizga o'qib beradilar.

-Iya, buni qaranglar, gazeta chop etilganiga yaqinda 75 yil



yaxshilikka oshno, doimo bolalik olami bilan yonib ijod qilayotgan gazeta jonkuyarlariga aslo hormanglar, deylik. Hamisha yo'lingiz tonggi yulduz kabi charog'on bo'lsin!


Men faqat oilaviy tabrigimizni emas, bobojonim haqidagi maqolamni ham qo'shib senga yuborayapman sevimli gazetam «Tong yulduzi». Uni sahifalaringda chop ettirsang, boshim ko'kka yetardi.

Mirjalol MUSAYEV,
Samarqand viloyati, Narpay tumani Muqumiy mahallasi.



HARFLARNI GAZETADAN O'RGANDIM

jurnallarni yangi sonini o'qishga kirishamiz. Muso bobom ularni avaylab varaqlaydilar. Ba'zi qiziqarli sahifalarini ovoz chiqarib o'qiydilar. Biz Mahfirat buvim bilan quloq solib o'tiramiz. To'g'ri, men hali katta gazetalaridagi maqolalarning mazmunini to'liq tushunmayman, lekin «Tong yulduzi»ni o'qishni juda yaxshi ko'raman. Nega deysizmi? Buning o'z sabablari bor. Hali maktabga bormasimdan bobom meni tizzalariga o'tqazib olib, «Tong yulduzi» gazetasining katta-katta sarlavhalardagi harflarini o'qitardilar. Bu harflarni ovoz chiqarib o'n marotabadan qayta-qayta aytirardilar. Ularni nomma-nom takrorlayverganim bois,



qiynalmadim. Hozir 4-sinfda tahsil olayapman. Bobomning aytishlaricha, ularning bolalik davrlari urush vaqtlariga to'g'ri kelgan ekan. Barcha qiyinchiliklarga qaramasdan bilim olish orzusi bir zum bo'lsa-da, qalblarini tark etmasdi. Uchqun, Yangirovot, Sho'rvat kabi katta qishloqlar orasida joylashgan yagona maktabga qatnab tahsil olarkan. O'qituvchilar frontga ketganligi bois, ko'pincha darslar o'tilmay qolar, shunda bobomning o'zlari sinfdoshlariga ba'zi bir darslardan bemalol saboq bergan ekanlar.

-O'sha vaqtlarda butun boshli qishlog'imizga 2 donagina «Lenin uchquni», hozirgi «Tong yulduzi» gazetasi kelar, pochtachi amakining yo'lini intilqik bilan poylardik. Ularning qorasi ko'rinishi bilanoq oldilariga yugurardik.

qarshimga o'tqazib olib, gazetadagi katta-katta harflar bilan beriladigan sarlavhalarni hech erinmasdan takror-takror o'qitirardim. Ayniqsa, Oydiyoy, To'lg'anoy ammalaring sinfdan-sinfga faqat «Maqto'v yorlig'i» bilan ko'chishardi. Ular dastlabki saboqlarini aynan shu gazetadan olganlar. Undagi «A'lochilar partasi», «Namunali xulqi uchun», «Jamoat ishlarida faollik» kabi sarlavhalar bilan berilgan maqolalar mazmunini tushuntirardim. Kimlar bu partada o'tirishini, namunali xulq nima degani, maktabda qanday jamoat ishlari borligini faqat o'qib emas, balki uqib borishardi. Shuning uchun ham qiynalmasdan maktabni faqat a'lo baholarga tugatishdi.

Yuzu ko'zlaridan nur yog'ilib turgan bobojonim qator yillar ko'p qavatli imoratlar, maktablar, bog'chalar qurilishida ishtirok etganlar. Kasblarining nozik sir asrorlari to'g'risida to'lqinlanib hikoya qilib beradilar. 78 yoshni

bo'lar ekan. Bu muddatda «Tong yulduzi» (ilgarigi «Lenin uchquni»)dan qanchadan-qancha kishilar ma'naviy ozuqa olishdi. Axir etak-etak oq-oltin terib, kim o'zarga bellashganimizni, tonna-tonna temir- t e r s a k yig'ib, yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shganimizni ham mana shu gazetada yoritishgandi-da. O'ziyam bayram bo'lib ketgandi o'shanda. Axir olis qishloq yoshlariga bundan katta mukofot bo'ladimi? Mirjaloljon, qalam, qog'oz keltirgin, biz ham oilamiz bilan tahririyat ahliga ikki og'iz tabrigimizni bitaylik. Qalbi h a m i s h a

Raqamlarni yuqordagi kataklarga joylashtiring:

- | | | | |
|-------|-------|-------|-------|
| 01254 | 41597 | 57135 | 87495 |
| 12123 | 46599 | 66079 | 87541 |
| 17132 | 52733 | 68894 | 90715 |
| 22542 | 53661 | 76846 | 91224 |
| 23398 | 55452 | 84503 | 95679 |
| 38954 | 56700 | 84773 | 71408 |

Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!

Tuzuvchi: Nodir ERGASHEV,
Buxoro viloyati, Gijdivon tumanidagi
46-maktabning
7- «V» sinf o'quvchisi.

ARALASH TEST

- Ilk o'rta asrlarda Farg'onada hokimlar qanday atalgan?
A) Sher; B) Hokim; S) Ellik boshi.
 - Qaysi qit'a tinchlik va do'stlik qit'asi nomini olgan?
A) Avstraliya; B) Antarktida; S) Yevrosiyo.
 - Feba qaysi sayyoraning yo'ldoshi?
A) Yerni; B) Saturn; S) Merkuriy.
 - Abdulla Qodiriy asos solgan jurnal nomi?
A) «Sinf-dosh» B) «Mushtum» S) «Yosh kuch»
 - «Paxtakor» futbol jamoasi qachon tashkil topgan?
A) 1950 yil; B) 1990 yil; S) 1956 yil.
 - «Charxpalak» filmi muallifi kim?
A) Sharof Boshbekov; B) O'tkir Hoshimov; S) G'afur G'ulom.
 - Zamburug'larni o'rganuvchi fan qanday ataladi?
A) Mekalogiya; B) Biologiya; S) Zoologiya.
 - «Tohir va Zuhro» maqbara yodgorligi qaysi viloyatda joylashgan?
A) Samarqandda; B) Namanganda; S) Qashqadaryoda.
 - Student so'zining ma'nosi nima?
A) Diqqat bilan o'qish; B) Talaba; S) Ikkala javob ham to'g'ri.
- Gulhayo SANAQULOVA,**
Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi
23 -o'rta maktabning 7- «B» sinf o'quvchisi.

Aziz bolajonlar, yana bir necha kundan so'ng «Tong yulduzi»ning «tug'ilgan kuni» bo'ladi. Aniqrog'i, gazetamiz chop etila boshlaganiga 75 yil to'ladi.

Sevimli nashringiz «Lenin uchquni» nomi bilan 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlaganini hammangiz yaxshi bilasiz. Shunday quvonchli damlarda gazetamizni o'ziga qadrdon do'st bilgan insonlar bilan hamsuhbat bo'lgimiz, ularning xotiralarini tinglagimiz keldi. Shu maqsadda «Istiqloq umidlari» to'garagimiz mashg'ulotiga sevimli jangchi-shoirimiz Nazarmat akani taklif qildik.

«Bir qo'lida qalam, bir qo'lida qurol tutgan jangchi-shoir». Sevimli shoirimiz Nazarmat akaga shunday ta'rif berishadi. Kattaroq yoshlilari darhol tanib, kichikroqlari b i r o z turgan shoirimizni ularga ham shunday tanishtirdim. O'lis Bekobod tumanining tog'li Nov qishlog'idan Toshkentga kelgan Nazarmat akaning ham bolalikdagi orzulari bir olam edi.

-Bolajonlarim, sizlarga boqib, bolaligim, mitti-mitti she'rlar qoralab yurgan damlarim yodimga tushib ketdi. Avvaliga o'qituvchi bo'lishni niyat qilgandim. Akam she'rlar mashq qilib yurardilar. Ko'pincha biznikida do'stlari bilan to'planishib, she'rxonlik qilishardi. Ularga havas qilib, men ham she'lar yoza boshladim. Keyinchalik shoirlikka bo'lgan ana shu havas ustunlik qildi. Birinchi yozgan she'rim 1934 yilda aynan mana shu gazetada chop etilganida, rosa quvongandim.

Hozir ham «Tong yulduzi»ning ashaddiy muxlislaridanman. Bolalarga ma'naviyat ulashuvchi bu gazetaning rangli tasvirda chiqayotganidan, sahifalari yangi-yangi ruknlar, mavzular bilan boyib borayotganidan juda xursandman. Har bir sonini nabiralarim bilan birga o'qib chiqamiz. Televizor, kompyuterlar qarshisida kamroq o'tirib, ko'proq kitob, gazeta va jurnallar o'qinglar, deya nasihat qilaman ularga. Sizlarga ham aytar gapim shu: puxta bilim olishingiz, kasb-hunar o'rganishingiz, dam olishingiz, sport bilan shug'ullanishingiz uchun yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli f o y d a l a n i n g , g'amxo'rliklarning qadriga yeting. Bizlarda bunday sharoitlar bo'lmagan...

Nazarmat aka shunday deya og'ir o'yg'a toldilar. Shu tobda o'zlarining bolalik, yigitlik damlarini, suronli urush

yillarini, uning dahshatlarini xotirlayotgan bo'lsalar ajabmas... Ikkinchi jahon urushi tugaganiga 60 yil bo'lyapti hamki, u n i n g m u d h i s h xotiralarini, ayanchli oqibatlarini halitani mayroq turgan shoirimizni ularga ham shunday tanishtirdim. O'lis Bekobod tumanining tog'li Nov qishlog'idan Toshkentga kelgan Nazarmat akaning ham bolalikdagi orzulari bir olam edi.

Siz kutgan uchrashuv



O'sha suronli

yillarda fashist-bosqinchilariga qarshi jangga o'tlangan sh millionga yaqin o'zbek xalqi farzandlari orasida juda ko'plab yozuvchi va jurnalistlar, san'at va madaniyat arboblari ham bor edi. Samarqand Davlat Universitetini imtiyozli diplom bilan tamomlagan Nazarmat aka ham ko'p qatori yurt himoyasiga o'tlandilar, taniqli shoir Sulton Jo'ra bilan yelkama-yelka jang qildilar. Uni intiq kutayotgan to'rt nafar norasida farzandlariga, urushga borgan albatta g'alaba bilan qaytadi, deya she'riy maktub yo'llagan Sulton Jo'raga jangohlardan omon qaytish nasib etmadi. Dnepr daryosi bo'yidagi shiddatli janglardan birida mardlarcha halok bo'ldi. Bugungi farovon turmushimiz uchun jonini fido qilgan jangchi-shoir jasoratini belorus xalqi unutmagan joyda Xotira muzeyi tashkil qilindi, bir maktab nomini Sulton Jo'ra deb nomlashdi. Shoirga atab ko'plab she'rlar yozishdi...

Urushning dastlabki kunlaridanoq jangga o'tlanib, 1947 yili g'alaba bilan yurtiga qaytgan Nazarmat aka qadrdoni Sulton Jo'ra haqida bilganlarini farzandlariga so'zlab berdilar. U kishining ayoli Mohira opani hamda farzandlarini Belorussiyaga, Sulton Jo'raning qabrini ziyorat qilishga olib bordilar. Belorus xalqi ularni qo'llarida non va tuz bilan iliq qarshi oldilar. O'zga yurtlarda

qolib ketgan shoirning qabri doimo obod ekanligini o'z ko'zlari bilan ko'rib, dillari taskin topib qaytishdi...

Ilyos Muslim, Ahmad Bobojon, Shuhrat, Ashirmat,

maydonidagi yurtdoshlariga gazetalar yetkazib berar, ularning she'rlarini gazetada chop ettirardi. Shiddatli janglardan birida tahririyat joylashgan poyezd vagoniga bomba tushib,

JASORATLI BO'LING

To'g'on Ernazarov, Mamarasul Boboyev kabi ko'plab shoir va yozuvchilarimiz bir qo'lida qalam, bir qo'lida qurol bilan jang qildilar. «Bolajonlarimiz hech vaqt urush nimaligini bilmasinlar. O'z ota-onalari bag'rida ulg'aysinlar», deya niyat bildirib,

Zifa mardlarcha halok bo'ladi. Hamyurtimiz mergan Zebo G'aniyevaning jang maydonidagi jasoratlarini tillarda doston bo'lgan. Bunday mardonavor onalarimiz haqida yozuvchi Adham Rahmat «shnelli qizlar» nomli kitob ham yozgan. Yozuvchi Omon Muxtor, Nazarmat aka ham quroldosh do'sti Sulton Jo'raning hayoti va ijodi haqida kitob yozdilar...

Jangchi-shoirimiz Nazarmat akaning hikoyalaridan ana shularni bilib oldik. Ota-bobolarimiz, momolarimiz qoni, joni evaziga kelgan tinch, osuda

she'rlar yozishdi ular. Ana shunday she'rlar jamlamasi G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyatida chop etilgan «Jangohdan sadolar» nomli to'plamdan joy olgan.

Shafqatsiz urush hech kimni ayamaganini, nafaqat erkaklarni, balki ayollar va o'smirlarni ham o'z domiga tortganini otabobolarimiz hikoyalaridan yaxshi bilamiz. Yarador jangchilarga yelkadosh bo'lgan Sobira Majidova, Farida Yunusova, Xanifa Qobilova, Maxsuma Umarxo'jayeva singari shifokor, hamshira qiz va juvonlarimiz qatorida ijodkor ayollarimiz ham oz emasdi. Toshkentlik Azizaxon Qalandarova to'pchi bo'lib, dushmanga qarshi jang qilgan bo'lsa, front gazetasida harbiy muxbir bo'lib xizmat qilgan Zifa Shamsiddinova jang

hayotimizning, musaffo o s m o n i m i z n i n g , mustaqilligimizning qadriga yetishimiz lozimligini, ularning jasoratlarini xotirlash, nomlarini abadiylashtirish lozimligini yanada chuqurroq his qildik.

-Aziz bolajonlarim,-deya so'zlarini yakunladilar Nazarmat aka,- sizlarning ham bobolaringiz, momolaringiz urushda qatnashgandir. Ularning jasoratlarini aslo unutmang. Ularga munosib avlodlar bo'lishga astoydil harakat qiling. Hozir sizlarga o'zim tarjima qilgan belorus shoirlarining Sulton Jo'raga bag'ishlab yozgan she'rlaridan birini o'qib bermoqchiman...

Nazarmat aka shunday deya ko'zlariga ko'zoynak ham taqmay, quyidagi she'rni o'qib berdilar:

Feruza JALILOVA.

IKKI OQ QAVIN

Vasiliy VITKA, Belorus shoiri.
(Sulton Jo'ra xotirasiga)

Kozeroqi qishlog'iga,
Polesye tuprog'iga,
O'lis O'zbekistondan,
Qadim Andijondan
Keldi yuragi pora,
Molamsaro ona,
Kalina yaprog'ida
Qalqir ko'z yoshi,
Bukik, g'amgin onaning
Qotmagan bardoshi.
Voridan judo bo'lgan,
Yodidan ado bo'lgan,
yoriga vafosi
Mangu nidosi:
«Aytchi, qanday yotibsan,
Meni ko'pmi kutibsan.
Paydo bo'lib tushingda,
Men turarman qoshingda.
Nevaralar ulg'ayishgan,

Ular seni kutishgan,
Ullarni ko'rolasanmi,
Erkalab yurolasanmi?
Intiladi qo'llaring,
O'lis esa yo'llaring.
Qo'shoq qayin tebrantar,
Eslab seni o'rtanar.
Sening aziz yoding u,
So'nmas hoki poying u,
Boqar Dnepr, quyosh,
Ayol ko'zlarida yosh...
Keksa ona ko'z yoshi,
Qurimastigi tayin.
Dardkash qabr ustida,
yodgor ikki oq qayin.
Andijon Polesyega,
Bo'ldi mangu birodar.
NAZARMAT tarjimasi.

Gazetaning navbatdagi soni 16 avgustda chiqadi.

TONG yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Mirakmal MIROLIMOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida № 022 raqam bilan 2003 yil shsh dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi. Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq. Toshkent matbaa kombinatida chop etildi.

Adadi - 14486
Buyurtma № J 000410

Gazetani O. ESHCHANOV sahifaladi. Navbatchi: O. TURSUNBOYEVA

Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Obuna indeksi: 198

Bizning elektron pochta: ijod@uzpak.uz

Tel: 144-63-08
144-62-34
Tel./ faks: (99871) 144-37-24